

Date: 13<sup>th</sup> February-2025

## GENDER AYOLLARGA IMKONIYAT

**Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna**

NamDU yuridik fakul'teti dotsenti

**Rajabova Madina Qo'chqorali qizi**

NamDU yuridik fakul'teti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish hamda xotin-qizlar va erkaklarni teng imkoniyatlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar va ayollarni jamiyat hayoti va oilada gender tenglik huquqlarini ta'minlash borasida qabul qilingan qonun hujjatlari, ularning ijrosi to'g'risida bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** gender tenglik, qonun, normativ-huquqiy hujjat, xotin-qizlar huquqlari, tazyiq va zo'ravonlik, strategiya, Oliy Majlis, Konstitutsiya.

**Abstract:** This article describes the measures aimed at achieving gender equality and providing women with equal opportunities in the Republic of Uzbekistan, as well as the implementation of adopted legislation in the field of ensuring women equal rights in society and the family.

**Keywords:** gender equality, legislation, normative legal document, women's rights, harassment and violence, strategy, Oliy Majlis, Constitution.

**Аннотация:** В данной статье описаны меры, направленные на достижение гендерного равенства и предоставление женщинам равных возможностей в Республике Узбекистан, а также реализацию принятого законодательства в области обеспечения равных прав женщин в обществе и семье.

**Ключевые слова:** гендерное равенство, законодательство, нормативный правовой документ, права женщин, домогательства и насилие, стратегия, Олий Мажлис, Конституция.

Hayot shiddat bilan o'zgarayotgan davrda jamiyat ham taraqqiy etar ekan, insonlar ham zamon bilan hamnafas bo'lishga harakat qilashadi. Bu ayollarga ham tegishlidir. Endilikda ayollar faqat uy-ishlari, bola tarbiyasi bilan shug'ullanib, "yo oila, yo ish", - degan fikrlar gender tengligiga to'sqinlik qiladi. Ko'rib turibmizki, rivojlanishning eng o'tkir muammolaridan biri tenglikka erishish, ayniqsa, jamiyatda ham, oilada ham erkak va ayolning gender tengligiga erishish eng og'ir masalalardan biridir. Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi. Gender tengligi nafaqat insonning asosiy huquqi, balki tinch, farovon va barqaror dunyo uchun zarur poydevordir. Shuningdek, bu O'zbekiston Respublikasining asosiy qomusi bo'lmish Konstitutsiyasining 58-moddasida belgilab qo'yilgan ya'ni jamiyatda erkak va xotin-qizlar teng huquqlarga egaligi va davlat ularni teng imkoniyatlar bilan ta'minlashi mustahkamlangan. Xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, barqaror taraqqiyot jarayonini tezlashtirish nihoyatda muhim jarayonlardan biridir. Xotin-qizlarga



Date: 13<sup>th</sup> February-2025



nisbatan barcha turdagi kamsitishlarni yo'q qilish nafaqat inson huquqlarini himoya qilish nuqtai nazaridan muhim, balki boshqa sohalar rivojlanishiga ta'sir etuvch kuchli omillardan biridir. Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilayotgani hech kimga sir emas. O'tgan to'rt yilda yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirishga doir 15 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan va ijroga qaratilgan. Xususan, o'tgan yili ikkita muhim hujjat – "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi. Qonunda xotin-qizlar va erkaklarga shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini amalga oshirishda teng huquqlilikni, jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, saylov jarayonida teng ishtirok etishni kafolatlashi mustahkamlab qo'yildi. Prezidentimiz qabul qilgan bir qator farmon va qarorlar davlat tashkilotlariga ayollar huquqlari bilan bog'liq vazifalarni belgilab, ularning mas'uliyatini oshirdi. "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yana-da kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror ana shunday muhim hujjatlardan biri hisoblanadi.

Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etildi. Alohida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiya tashkil etilib, u xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi ishlarning holati to'g'risida har yili O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga axborot taqdim etishi belgilab qo'yildi. Aytishimiz mumkinki, ayollar va erkaklar tengligi madaniyatini shakllantirish-bu tizimli va doimiy jarayon bo'lib, keng jamoatchilik va fuqarolik institutlari bilan hamkorlikni talab etadi. Bu borada jamiyatning barcha jabhalari-davlat tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, biznes subyektlari, kasaba uyushmalari va keng aholi qatlamlarining birgalikdagi va hamjihatlikdagi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, bu islohotlar natijasida qonun ijodkorligiga "normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini gender-huquqiy ekspertizasi", degan yangi institut kirib keldi. Gender-huquqiy ekspertiza- normativ-huquqiy hujjatlarni hamda ularning loyihalarini xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlash prinsiplariga muvofiqligi yuzasidan tahlil qilish hisoblanadi.

O'zbekistondagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash kafolatlari" to'g'risidagi qonunda keltirib o'tilgan.

Shuningdek, aytib o'tishimiz mumkinki, O'zbekiston tarixida ilk marotaba parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetib, parlamentdagi xotin-qizlar soni qariyb 32 foizga yetdi va dunyodagi 190 ta parlament orasida 37-o'ringa ko'tarildi. Bundan tashqari, boshqaruv lavozimidagi xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, oliy ta'limda 40 foizga, tadbirkorlikda 35 foizga yetdi.

Date: 13<sup>th</sup> February-2025



Xotin-qizlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ular bilan manzilli ishlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi joriy etilib, Davlat budjetidan har yili 300 mlrd so'm mablag' ajratib borish yo'lga qo'yildi. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1 300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda strategiyaning asosiy maqsad va vazifalari hamda gender tenglik bo'yicha muommolar, strategiyaning ustuvor yo'nalishi, ta'lim, fan, sport sohasida shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda xotin-qizlarga va erkaklarga teng imkoniyatlarni ta'minlash, tazyiq va zo'ravonlikning oldini olish, gender strategiyasi yuritilishini takomillashtirish va ushbu strategiyadan kutilayotgan natija, gender strategiyasining amalga oshirilishini monitoring qilish haqida aniq boblar belgilangan.

Gender strategiyasining asosiy maqsadi — irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligini ta'minlashdan iborat. Ushbu strategiyaning ba'zi asosiy vazifalari xotin-qizlarning yer va mulkka nisbatan egalik qilish imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish, ularning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq salbiy qarashlarni o'zgartirish, munosib ish o'rinlarini yaratish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish, xotin-qizlarning tijorat banklaridan kredit olishga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish, xotin-qizlar va erkaklarni butun umri davomida o'qishga bo'lgan imkoniyatlarini rag'batlantirish, ularning oilani rejalashtirish borasidagi tibbiy madaniyatini oshirish va reproduktiv salomatligini mustahkamlash, tazyiq va zo'ravonlikni oldini olish, ularni aniqlash va barham berish bo'yicha samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni yaratish, oilaviy munosabatlarda barcha oila a'zolarining mas'ulligini oshirish, erta nikoh, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh, erta tug'ruq hamda oilaviy ajralishlarning oldini olish, gender tenglik, ayollar tadbirkorligi, xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlarini baholovchi xalqaro reyting va indekslarda O'zbekistonning o'rnini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kabilar hisoblanadi.

Gender notenglik boshlanish nuqtasi oilada yuz beradi, oilaviy munosabatlarda gender tenglik masalasi bo'yicha ko'plab nizolar yuz bermoqda ya'ni diniy qarashlar asosida ayollar erkaklar bilan teng bo'lmasligi, oilada erkak ustunligi, erkakning fikrlari inobatga olinishi hamda bunga ayol-qizlar bo'ysinishi kabi fikrlar mavjud. Shu fikr asosida oilalarda xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik holatlari oxirgi paytlarda tez-tez kuzatilmoqda. Ushbu muommolarni oldini olish maqsadida yuqorida aytib o'tgan strategiyada normalar va vazifalar aytib o'tilgan. Tazyiq va zo'ravonlikning oldini olishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

tazyiq va zo'ravonlikdan jabrlanuvchilarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish hamda moslashtirish tizimini takomillashtirish hamda davlat hisobidan moliyalashtirish;

Date: 13<sup>th</sup> February-2025

-tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning xavfsizligini, jismoniy va ruhiy rehabilitatsiyasini hamda moslashuvini ta‘minlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish;

-Tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash maqsadida quyidagi tadbirlarni amalga oshirish zarur:

-tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarni ijtimoiy rehabilitatsiya qilish hamda moslashtirish tizimini takomillashtirish hamda davlat hisobidan moliyalashtirish;

-tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning xavfsizligini, jismoniy va ruhiy rehabilitatsiyasini hamda moslashuvini ta‘minlashga oid chora-tadbirlarni amalga oshirish; tazyiq va zo‘ravonlik holati qayd etilgan oilalar, ish joylari, jazoni ijro etish muassasalari va boshqa obyektlarning hisobini yuritish, shuningdek tazyiq va zo‘ravonlik sodir etishga moyil bo‘lgan yoki uni sodir etgan g‘ayriijtimoiy xulq-atvorli shaxslarni aniqlash, ularga profilaktik ta‘sir ko‘rsatish hamda xulq-atvorini o‘zgartirish tizimini va choralarni takomillashtirish; xotin-qizlar va erkaklarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikka doir murosasizlik muhitini yaratish, gender stereotiplarni bartaraf etish bo‘yicha ommaviy axborot vositalari ishtirokida targ‘ibot-tashviqot ishlarini kuchaytirishdir.

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish joizki, qabul qilinayotgan u yoki bu darajadagi hujjatlarning ayollar va erkaklar uchun bir me‘yorda bo‘lishiga, nafaqat erkaklar balki jamiyatda, siyosatda va oilada ham xotin-qizlarning barcha imkoniyatlarga ega bo‘lishi bilan bir qatorda yuqori natijalarga erishishi nazarda tutilgan.

#### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “O‘zbekiston”: 2024 yil.,
2. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng imkoniyatlar kafolati” to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni; [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash” haqida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori., [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
4. “Erkaklar va ayollar teng huquqliligi kafolatlari” maqola., [www.advice.uz](http://www.advice.uz)
5. “Gender tengligi va ayollarning huquqlari” nomli maqola., [www.fyut.uz](http://www.fyut.uz)
6. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. INSON HUQUQLARI XALQARO STANDARTLARI VA MILLIY GENDER MASALALARI. O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI. 33-SON 20.10.2024. 166-170-betlar.
7. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila mustahkamligini ta‘minlashda ota, ona, farzandlar tarbiyasi o‘rni. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH VOLUME-7 ISSUE-10 (30- October) 44-50. VOLUME 7, ISSUE 10 (30- OCTOBER)
8. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Oila ma‘naviyati-jamiyat taraqqiyoti omili. So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. 7-jild 10-son Respublika ilmiy-uslubiy jurnali 13.10.2024. 106- 112



Date: 13<sup>th</sup>February-2025

9. Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. Nikoh munosabatlarida milliylik va qonun normalarining amal qilishi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi. Respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 13-mart, 2024-yil 7-jild 3-son. 131-135.

10.Chuboyeva Ozodaxon Kuvonbekovna. ХУҚУҚИЙ СОҲАДА АЁЛ СИЙМОСИ. MODERN WORLD EDUCATION: NEW AGE PROBLEMS – NEW SOLUTIONS. International online conference. Date: 3 rdFebruary-2025. 40-43-betlar

